

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 61:174:37.091.3

**TIBBIY TA'LIMGA BIOETIKAVIY IMPERATIVLARNI JORIY ETISH - ZAMONAVIY
TIBBIYOTNI OPTIMALLASHTIRISHNING USULI SIFATIDA****ВНЕДРЕНИЕ В МЕДИЦИНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ БИОЭТИЧЕСКОГО ИМПЕРАТИВА
КАК СПОСОБ ОПТИМИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЫ****INTRODUCTION OF THE BIOETHICAL IMPERATIVE IN MEDICAL EDUCATION AS A
WAY TO OPTIMIZING MODERN MEDICINE****Umirzakova Nargiza Akmalovna** 

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya

Bizning davrimiz fan va texnika taraqqiyoti, yangilik va kashfiyotlar, jumladan, tibbiyot va biologiya fanlari yutuqlari bilan tavsiflanadi. Yangi biotibbiyot texnologiyalari tibbiyotning fan va faoliyat turi sifatidagi qiyofasini tubdan o'zgartirdi, chunki ularni qo'llash natijasida misli ko'rilmagan, ziddiyatli, murakkab yangi muammolar paydo bo'la boshladi. Yangi biotexnologiyalarning imkoniyatlari tibbiyotda etika, bemor huquqlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi, shuningdek, uning diniy e'tiqodi, ishonchi va shaxsiy qadriyatlariga ta'sir qiladi. Ushbu omillar tufayli mazkur muammolarning echimini bioetik imperativ yordamida izlash zarurati ortib bormoqda. Maqolada muallif tibbiy ta'limni optimallashtirishda bioetikaning o'rniga e'tibor qaratadi.

Аннотация

Наша эпоха характеризуется прогрессом науки и техники, инновациями и открытиями, в том числе достижениями в медицинских и биологических науках. Новые биомедицинские технологии коренным образом изменили образ медицины как науки и вида деятельности, так как в результате их применения стали появляться беспрецедентные, противоречивые, сложные новые проблемы. Возможности новых биотехнологий породили проблемы касательно этики в медицине, прав пациента, а так же затрагивают его религиозные убеждения, веру и личные ценности. В связи с этими факторами возрастает необходимость поиска решений этих проблем при помощи биоэтического императива. В статье автор акцентирует внимание на роль биоэтики в оптимизации медицинского образования.

Abstract

Our era is characterized by progress in science and technology, innovation and discovery, including advances in medical and biological sciences. New biomedical technologies have fundamentally changed the image of medicine as a science and a field of activity, as their application has led to the emergence of unprecedented, controversial, and complex new problems. The potential of new biotechnologies has raised issues regarding medical ethics, patient rights, and their religious beliefs, faith, and personal values. These factors increase the need to find solutions to these problems through the bioethical imperative. In this article, the author focuses on the role of bioethics in optimizing medical education.

Kalit so'zlar: bioetikaviy imperativ, biomeditsina, insonparvarlik, shifokor axloqi, kasbiy kompetensiyalar, shifokorlik kasbi.

Ключевые слова: биоэтический императив, биомедицинские технологии, ценности, гуманизм, медицинская этика, профессиональные компетенции, медицинская профессия.

Key words: bioethical imperative, biomedical technologies, values, humanism, medical ethics, professional competencies, medical profession.

KIRISH

Tibbiy bilimlar va tibbiy faoliyatning maqsadi - inson hayotini saqlab qolish hamda sog'lom bo'lishga ko'maklashishdir. Shifokor kasbini shakllantirish asosi sifatida nafaqat iqtisodiy, ta'limiy, balki ma'naviy maqsad – "azob chekayotgan insonga yordam berish uchun qat'iyat bilan harakat qilish" kabi asosiy xususiyatni ko'rsatish lozim. Shifokor mahorati uning kasallik etiologiyasi va patogenezini nechog'li yaxshi o'zlashtirgani, tashxis qo'yish va davolash metodlarining samaradorligi bilangina emas, bemor bilan muloqotga kirisha olish, unga maslahat berish, bemorning shifo topishiga bo'lgan umidini so'ndirmaslik, unga yangi umid bera olish mahorati bilan ham o'lchanadi [3]. Inson to'g'risidagi fan tibbiy-biologik fan yo'nalishlari bilangina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-

FALSAFA

gumanitar bilimlar hamda ma'naviy yuksaklikni ham nazarda tutadi, shuning uchun shifokorning axloqi bilan bog'liq masala tibbiy faoliyatning ajralmas qismidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Biotibbiyot va unga asoslangan texnologik innovatsiyalar sohasidagi ilmiy taraqqiyotning jamiyat hayotidagi samarasini to'g'ri ta'minlash uchun klinik tibbiyotda yangi nazariy bilimlarni qo'llashdan oldin ularning inson sog'ligi va xayotiga ta'sirlarini optimal prognozlash, har tomonlama xolis baholash zaruriyati kun sayin ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlarni ijtimoiy baholash xilma-xil, ko'p qirrali va o'ta ziddiyatli jarayon bo'lib, fanning ijtimoiy-madaniy xodisa sifatida rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarining rang-barangligi bilan belgilanadi. Tibbiy axloq haqidagi qarashlar mohiyatan tibbiyotni insonparvarlashtirish masalasiga mos bo'lib, ilk bor Gippokrat, Galen ma'naviy merosida sodda shaklda ifoda etilgan. Sharq mutafakkirlari Ishaq ibn Al-Ruhoviy, Zakariyo al-Roziy, Abu Ali Ibn Sinolar "Odob al-tabib" axloqiy qadriyatlar tizimini yaratdilar. G'arb mutafakkirlari bioetikaning nazariy asoslarini o'rganib, uning evolyutsiyasini tahlil qilishgan. Amerikalik D.Kallaxan, E.Pellegrino, U.T.Rayx, T.Engelgart, germaniyalik X.Yonas, Fransiyalik D.Grasia, angliyalik M.Charlzhvort, italiyalik E.Sgrechcha, V.Tambone kabi xorij olimlari bioetika bo'yicha fundamental tadqiqot ishlarini olib borishgan [5]. G'arbda bioetikaning insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan va ma'lum bir davrning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bioetika fanini yuzaga kelishi va shakllanishida ham aks etgan.

Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi. "Bioetika" atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi[4]. Bioetika o'tgan asrning 70-yillarida Van Ranseler Potter tomonidan yaratilgan ta'limot bo'lib, u biotibbiy faktlar va axloqiy qadriyatlar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin etildi. Maqolani tayyorlashda tarixiylik metodi, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usul va uslublardan foydalanildi. Ushbu maqolada bioetika fanining tibbiy ta'limdagi amaliy ahamiyati haqidagi fikrlar yoritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gippokrat zamonidan buyon barcha tan olgan hamda shubhasiz amal qilinishi lozim bo'lgan qarashlardan biri shuki, shifokorning axloqi – bu shifokorni hurmat qilish lozim bo'lgan sifatgina bo'lib qolmasdan, uning kasbiy mahoratini belgilaydigan omil hamdir. Aslida, shifokorning yuqori darajadagi axloqiy madaniyati shubxasiz uning ma'naviy qiyofasi sofliqi bilan chambarchas bog'liq. Bu haqiqat quyidagi so'zlarda o'z ifodasini topgan: "Yaxshi inson bo'lmagan yaxshi shifokor ham bo'la olmaydi..." [2]. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida biotibbiyot ilmi hamda amaliyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi zamonaviy tibbiyot xodimi faoliyatida ijtimoiy va qadriyatlar tizimining kuchayishiga turtki bo'ldi. Insoniyat taraqqiyotida salomatlik masalasining globalizatsiyasi, boshqa tomondan biotibbiy tadqiqotlardagi muvaffaqiyatlar bugungi kunda tibbiyotning fan va faoliyat shakli sifatidagi qiyofasini tubdan o'zgartirdi, uning tarkibidagi qadriyatlar tizimiga yana-da ko'proq urg'u berila boshlandi. Gen injeneriyasi, biotexnologiyalar, inson tana a'zolari transplantatsiyasi, sog'lik va kasalliklarning psixosomatik va ijtimoiy-madaniy xarakterini aniqlash kabi yo'nalishlarda tibbiyotning oldida yangi muammolar paydo bo'lyaptiki, ular axloqiy-falsafiy, diniy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga borib taqalad [8]. Bugungi kun shifokori bola tug'ilishi, inson hayoti va o'limi, inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsata oladigan vositalarga ega shaxsdir. Shifokorning xatti-harakatlari demografiya, iqtisod, huquq va ma'naviyatga ta'sir eta oladi [14]. Zamonaviy meditsinaning axloqiy talablari kundan kun ko'proq ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shunday sharoitda shifokor professional xususiyatlarining shakllanishi falsafiy bilim va falsafa ta'limi katta ahamiyat kasb etib bormoqda [9]. Jamiyat tafakkurining aksi hamda madaniyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar aralashmasi o'laroq falsafa inson tarbiyasi va umumiy madaniyatining asosiy ko'rsatkichidir. U nazariy tafakkur, tizimli yondashuv va refleksiyaning shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun falsafiy ta'lim nafaqat aqlni charxlaydi, balki madaniyat asosi bo'lgan axloqiy talablarni aniqlab olish, hayotiy me'zonlarni belgilab olish, shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi. Madaniyat refleksiya sifatida falsafa insonning dunyodagi hayotiy faoliyatiga doir qadriyatlarini anglashga qaratilgan ongli faoliyatidir. Bunday qadriyatlar orasida inson uchun eng muhimi, shubhasiz, uning hayoti va salomatligidir [10].

Inson tomonidan bugungi kunda olib borilayotgan biotibbiy va biofarmatsevtik tadqiqotlar tibbiyot, farmatsevtika va sog'likni saqlash tizimining faoliyati uchun eng muhim shart bo'lib qolmoqda. Inson ishtirokida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lami jadal sur'atlarda oshib bormoqda.

[4]. Biroq insonning tadqiqotlardagi ishtiroki uning sog'ligi, hayoti, huquqlari, sha'ni, farovonligiga daxl qilishi mumkin. Sivilizatsiya va jamiyat insonni himoya qilish yo'llarini izlay boshladi. Shunday himoya shakllaridan biri sifatida bioetika, uning nazariy va amaliy shakllarini ko'rsatishimiz mumkin.

Tibbiyot va farmatsevtikaning yangi imkoniyatlari nafaqat davolash amaliyoti bilan, balki inson hayotini boshqarish (masalan, inson xususiyatlarini genetik korreksiyasi, ruxsatsiz donorlikka yo'l qo'yish, embrional bosqichdagi yangi hayotni yo'q qilish, qattiq og'rigan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni to'xtatish yoki rad etish) bilan ham bog'liq, bu holat esa mavjud ma'naviy qadriyatlar va prinsiplarga ziddir [11]. Bunday ziddiyatlar tufayli bioetika fani yuzaga keldi [20]. Ushbu yo'nalish inson hayoti va o'limi bilan manipulyatsiya qilish chegaralari to'g'risida ma'lumot terib, "hayot va sog'lik to'g'risidagi fan hamda axloqiy qadriyatlar va prinsiplar doirasida inson xulq-atvorini tizimli tadqiq qilish" to'g'risidagi yo'nalishdir [6]. Bioetika biotibbiyot va inson, biotibbiyot va jamiyat o'rtasidagi axloqiy ziddiyatlarni zamonaviy madaniyatga xos qadriyatlarni anglash orqali o'rganadi. Shu ma'noda bioetika inson hayotiy faoliyatining amaliy falsafasi sifatida namoyon bo'ladi [18].

Bioetika fanining amaliy shakli sifatida etika qo'mitalari faoliyatini ko'rsatishimiz mumkin. Bioetikaning bunday amaliy shakli 1964-yilda Butundunyo Tibbiyot Assotsiatsiyasi tomonidan Xelsinki Deklaratsiyasini qabul qilish chog'ida topilgan. Ushbu Deklaratsiyaning "Asosiy prinsiplar" bo'limi, 2-bandida aytilishicha: "Har bir tadqiqot turini o'tkazish bo'yicha umumiy reja va sxema protokolda aniq va batafsil ko'rsatilishi, u esa, o'z navbatida, o'rganib chiqish va tasdiqlash uchun maxsus komissiyaga taqdim etilishi lozim" [1]. Xelsinki Deklaratsiyasining asosiy bandle ko'pgina milliy qonunchiliklarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Biotibbiyot etikasi-davolash etikasi va tibbiyot deontologiyasi taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lib, unda shifokor burchi, sha'ni, qadr-qimmati, tibbiyot sohasidagi munosabatlarni ma'naviy-etik tartibga solish kabi masalalar inson huquq va erkinliklari, uning hayoti va salomatligini hurmat va himoya qilish darajasiga ko'tarish asosida tadqiq etadi [13]. Biotibbiy etika zamonaviy shifokor va farmatsevtadan tortib olimlarimizgacha bo'lgan professional tibbiy faoliyatning amaliy falsafasini nazarda tutadi, chunki bu soha insoniyatning asosiy qadriyatlari – insonning yashash huquqi va sog'ligi, avtonomiya va tanlov huquqini himoya qilish, tibbiyot ilmi va amaliyotining zamonaviy ma'naviy-etik ta'minotini ishlab chiqish, tibbiy va meditsina faoliyatiga, ham shifokor, ham farmatsevt, ham bemor uchun xos bo'lgan ma'naviy kolliziya va dilemmalarni anglashga qaratilgan [15].

XULOSA

Shunday qilib, tibbiyot xodimining professional kompetentligini shakllantirish o'z ichiga tibbiy bilimlarni oshirishga hamda maxsus bilim va ko'nikmalarni egallashga jadal harakat qilish (tibbiy xizmat sifati olingan ta'lim va bilimdan ortiq bo'la olmaydi), shuningdek, ongli ravishda tibbiy faoliyatni eng kuchli ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Zamonaviy tibbiyot xodimini tarbiyalash va shakllantirish bugungi kun fani hamda bioetikaning aksiologik asoslari borasidagi kognitiv natijalarga asoslanadi [12]. Biotibbiyot etikasiga doir bilimlarni bilish, talabalar tomonidan ma'naviy-axloqiy qoida va normalarni ongli ravishda qabul qilish ularga fan tarmoqlarini maqsadli o'rganish, professional darajani saqlab turish, zamonaviy tibbiyot, ilm-fan va farmatsevtika sohasidagi yangiliklarni hayotni hurmat qilish prinsipi asosida inson va jamiyat manfaatlarini yo'lida ishlatish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хельсинкская декларация ВМА <https://www.mediasphera.ru/journals/mjmb/2000/4/r4-00-20.htm>
2. Умирзакова Н.А. Актуальность и востребованность биоэтики в медицинском образовании Узбекистана. // Педагогика и психология в медицине: проблемы, инновации, достижения. - М. Издательство Перо, 2021. - МБ. [Электронное издание]. - С.291-295.
3. Умирзакова Н.А. Axiological function of bioethics in the context of optimization of medical education / Фалсафа ва ҳаёт". - 2023. №4 (23). - Б.24-30.
4. Умирзакова Н.А. Востребованность биоэтики для гуманизации медицинского образования в Узбекистане. // IX Міжнародного симпозиуму з біоетики здоров'я, медицина та філософія: стратегії виживання 15-16 КВІТНЯ 2021. С. 88-90.
5. Поттер В.Р. Биоэтика – мост в будущее / В.Р.Поттер; ред. С.В.Вековщина, В.Л.Кулиниченко; пер. Т.Г.Будковская, С.В.Вековщина. – К.: Вадим Карпенко, 2002. – С.215.
6. Умирзакова Н.А. Биоэтика фанининг интегративлик хусусиятлари / Фалсафа ва ҳаёт// Халқаро илмий журнал.- 2024. №1 (24). - Б.42-48.

FALSAFA

7. Умирзакова Н.А. Таълимни инсонпарварлаштириш контекстида биоэтиканинг онтологик ва гносеологик жиҳатларининг методологик таҳлили: ф.ф.н...дисс. - Тошкент: ЎзМУ. 2022. - Б.147.
8. Умирзакова Н.А. Значение изучения биоэтики в формировании профессиональной компетентности у студентов медицинских ВУЗов. Научные исследования XXI века. №5 (7) 2020. Нефтекамск. Россия. 2020. стр. 140-144.
9. Умирзакова Н.А. Гуманизм как основа медицины. // SCHOLAR, 3(4), 2025. С.68–72.
10. Умирзакова Н.А. Репродуктив саломатлик ва оила қадриятларининг биоэтикавий жиҳатлари. Монография. –Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.112.
11. Умирзакова Н.А. Медикализатсия жараёнларининг жамият ҳаётига таъсири – биоэтика муаммоси сифатида // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2020. -№ 1/4. – Б.136-138.
12. Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо бўлиши, фан сифатида шаклланиши ва ўрганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. - №1(8). - Б. 56-69.
13. Умирзакова Н.А. Жамият ҳаёти ва медикализатсия // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2021. -№1. - Б. 118-121.
14. Умирзакова Н.А. Bioethic culture in Uzbekistan: national and religious aspects of // International engineering journal for research & development. – India, 2021. Vol.6. Issue 2. SJIF: 7.169. E-ISSN. No:2349-0721. – P.1-4.
15. Umirzakova N.A. The Roles of Bioethics in the Formation of Professional Competence of Students of Medical Universities in Uzbekistan // Eubios journal of Asian and international ejaib. Vol. 31(5). July. 2021. – P. 258-260.
16. Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Биоэтика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.135.
17. Умирзакова Н.А. The impact of philosophical thinking on new approaches in medicine.// SCHOLAR, 3(5), ISSN: 2181-4147, 2025. 3(5), P.34–37.
18. Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Исторические и современные аспекты мусульманской философско-религиозной и этической традиции в медицине // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2019. - №4 (7). - С. 28-51.
19. Umirzakova N.A. Shifokor va bemor munosabatlarida tibbiy gumanistikaning ahamiyati. // SCHOLAR, 3(3), 2025. Б. 136–139.
20. Umirzakova N.A. Bioetika fanining insonparvarlashtirish paradigmasi - tibbiy ta'limni optimallashtirish mexanizmi sifatida // O'ZMU XABARLARI. - 2025. 1/ 4 /1. - B.375-377.